

## O‘ZLiDEPNING XALQ BILAN MULOQOTI VA OCHIQLIK SIYOSATI

**Bafoeva Noila Botir qizi**

*Alfraganus Universiteti Defektalogiya yo‘nalish 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining (O‘zLiDeP) xalq bilan muloqoti va ochiqlik siyosati tahlil qilinadi. Partiya o‘z faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni tanlab, Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida faol ishtirok etib, xalq bilan bevosita muloqot o‘rnatishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shuningdek, partiya iqtisodiy liberallashtirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatda ishonch va ochiqlik muhitini shakllantirishga intilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** O‘zLiDeP, xalq bilan muloqot, ochiqlik siyosati, oshkoralik, konstitutsiyaviy islohotlar, iqtisodiy liberallashtirish, xususiy mulk huquqi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) mamlakatimizda demokratik tamoyillarni mustahkamlash va fuqarolar bilan ochiq muloqot o‘rnatishga alohida e’tibor qaratmoqda. Partiya o‘zining “Biz ochiqlik va oshkoralikni tanlaymiz!” shiori ostida o‘tkazilgan tadbirlarda Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida faol ishtirok etib, keng jamoatchilik bilan bevosita muloqot olib bordi. Masalan, Amudaryo tuman hokimligida tashkil etilgan tadbirda partiya yetakchilari va senatorlar ishtirok etib, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartishlarning mazmun-mohiyatini tushuntirdilar.

O‘zLiDeP xalq bilan muloqotni faqat siyosiy islohotlar bilan cheklamay, iqtisodiy sohada ham ochiqlik va oshkoralikni ta’minlashga intilmoqda. Partiya dasturida iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bu orqali partiya jamiyatda ishonch muhitini shakllantirish va fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O‘zLiDeP o‘zining rasmiy veb-sayti va boshqa axborot platformalari orqali o‘z faoliyati haqida muntazam ravishda ma’lumot berib, fuqarolarni qiziqtirgan savollarga javob bermoqda. Bu esa partiyaning ochiqlik siyosatini amalda namoyon etib, xalq bilan muloqotni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Har bir mustaqil davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga ega bo‘lib, ularning haqiqiy yaratuvchisi va bunyodkori xalq hisoblanadi. Ushbu muqarrar haqiqatni O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi va mustaqil rivojlanishining so‘nggi davri, taraqqiyot, mustaqillik va davlat suverenitetini mustahkamlash, barqaror va jadal rivojlanayotgan, demokratik huquqiy davlatni, bozor iqtisodiyotini, yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatimizning hozirgi va kelgusi avlodlari turmushining yuqori sifatini ta’minlash yo‘li yorqin tasdiqlaydi.

Mamlakatimizning eng yangi tarixi hamda jamiyat va davlat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarini liberallashtirish sohasida erishilgan ulkan yutuqlar shunday deb ta’kidlashga asos bo‘ladiki, O‘zbekiston xalqi mardlik va kuch-qudratga,

bukilmas irodaga va qat’iyatga ega bo‘lib, ushbu olijanob maqsadga erishish yo‘lida har qanday qiyinchiliklar va sinovlarni yengib o‘tishga qodir. Barcha sohalaridagi chuqur islohotlar, jadal amalga oshirilayotgan liberal o‘zgarishlarning ustuvorliklari ularning asosida siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi ta’minlanadigan, aholining turmush darajasi, siyosiy va huquqiy madaniyati o‘sadigan, davlat taraqqiyotining eng muhim tamoyili - «Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun» ekanligi mustahkam poydevorni hosil qiladi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) shuni ta’kidlaydiki, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ustuvorliklari — real yangilanishlar dasturining faol amalga oshirilishi O‘zbekiston ongli ravishda qat’iy liberal islohotlar yo‘lidan borayotganidan, mamlakatning yangi qiyofasini shakllantirish g‘oyasiga sodiq ekanligidan guvohlik beradi.

Biz davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlarining Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirish bo‘yicha xatti-harakatlarining amaliy birlashuvini qayd etmoqdamiz. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, chuqur ma’muriy islohotlarni amalga oshirish, sud-huquq tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta’minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhitni shakllantirish, millatlararo hamdo‘stlikni ta’minlash, puxta o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish bo‘yicha tizimli va o‘zaro bog‘liq, bir birini taqozo etuvchi choralar amalga oshirilmoqda.

«Islohot islohot uchun emas, inson manfaatlari uchun» tamoyilini hayotga joriy etish, aholi bandligi va real daromadlarini izchillik bilan oshirish, ijtimoiy soha, fuqarolar sog‘ligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish, infrastrukturani takomillashtirish, fan va ta’lim sohasini rivojlantirish, oilani, davlat yoshlar siyosatini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Natijada bugungi kunga kelib O‘zbekiston dunyoning jadal rivojlanayotgan, gullab-yashnayotgan va barqaror mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda hukm surayotgan do‘stlik va hamjihatlik, uyg‘unlik va o‘zaro hurmat muhiti, rivojlangan barg‘ikenglik va insonparvarlik madaniyati, millatlarararo va fuqarolararo do‘stlik — tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, xalqaro maydonda O‘zbekiston nufuzining o‘sishi, xalq orzu-umidlar va intilishlarini hayotga joriy etishning muhim omilidir.

O‘zbekistonda o‘tgan qisqa davrda korrupsiyaga qarshi kurashda salmoqli natijalarga erishildi. Ushbu illatga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilinib, yangi tizim yaratildi. Parlament palatalarida mas’ul qo‘mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va Agentlik tashkil qilindi. Jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi.

2025-yil 25-fevralda O‘zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya Qo‘mitasi raisi va partiya fraksiyasi rahbari Aktam Xaitov boshchiligidagi ishchi guruh a’zolari navoiylik tadbirkorlar

bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Partiya viloyat Kengashi mas’ullari, deputatlar, yoshlar, partiya faollari hamda tadbirkorlar ishtirok etgan muloqotda O‘zLiDePning kelgusi yillardagi maqsad-vazifalari xususida so‘z yuritildi. Tadbirda ta’kidlanganidek, partiya barqaror ish joylarini yaratib, kambag‘allikni qisqartirish, aholini tadbirkorlikka jalb qilishning mahallabay dasturlarini ishlab chiqish, tuman, shahar va mahallalarning master-rejalari ustida ishlashda deputatlik guruhi vakillaridan iborat jamoatchilik nazoratini kuchaytirgan holda bu boradagi islohotlarimiz ko‘lami va qamrovini yanada oshirishni ustuvor vazifasi, deb biladi. Shuningdek, partiya kelgusi yillarda aholi bandligi va ishbilarmonligini faol qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, tadbirkorlar sektori qamrovini yanada oshirish, ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasblarga o‘qitish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, korxonalar buyurtmasi asosida kasbga tayyorlash amaliyotini joriy qilish, har bir viloyatda kamida 100 gektar maydonda “Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi”ni tashkil qilish partiyaning ustuvor vazifasidir. Partiya saylovoldi platformasida ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun mikromoliyalash xizmatlarini kengaytirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish uchun imkoniyat yaratish, o‘z biznesini ijaraga olingan binoda boshlayotgan ishsiz fuqarolarga bir yillik ijara xarajatining 50 foizini qoplab berish ham belgilanganligi takidlandi. Muhokama ishtirokchilari partiya tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlashini va mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlarni chuqur anglagan holda yurtimiz taraqqiyoti uchun o‘z hissalarini qo‘shishlarini bildirib o‘tishdi.

2025-yil 24-fevralda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida O‘zLiDeP tomonidan amalga oshirilayotgan “Inklyuziv jamiyat sari” loyihasi doirasida “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimi va uning istiqbollari” mavzusidagi o‘rganishlar muhokamasi va amaliy davra suhbatlari tashkil etildi. Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zLiDeP fraksiyasi a‘zolari, mahalliy Kengashlar deputatlari va partiya faollari, mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari, mutaxassis-ekspertlar, universitet professor-o‘qituvchilari hamda talabalari, OAV vakillari ishtirok etdilar. Loyiha nogironligi bor shaxslar uchun to‘siqsiz va xavfsiz harakat, iqtisodiy va huquqiy imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy tenglik, inklyuziv ta’lim, ularning bandligi kabi masalalarini o‘z ichiga oladi. Tadbirda O‘zLiDePning “5 maqsad, 500 vazifa” dasturida belgilangan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus dasturlar va ijtimoiy yordamlar, jumladan ta’lim va kasbiy qayta tayyorlash bo‘yicha xizmatlarni kengaytirish, ular uchun moslashuv va qulayliklar, shu jumladan infratuzilmani nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirish, jamoat joylari, transport va davlat xizmatlariga kirish imkoniyatini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratish, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kasb-hunar bilim yurtlari, oliy ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan xotin-qizlarning bevosita uzluksiz ta’lim olishida yaqindan ko‘maklashish; ta’lim muassasalarida “O‘zLiDePchi madadkor” ko‘ngilli yoshlar klublarini tashkil etish va mazkur klublar saflarida birlashgan yoshlarni imkoniyati cheklangan tengdosh do‘stlarini ma’nan qo‘llab-quvvatlash, ularga zaruriy insonparvarlik yordamlarini ko‘rsatishga

chaqirish kabi masalalar ham kun tartibidan o‘rin oldi. Tadbir davomida O‘zLiDeP g‘oyalari haqida hayrixoh bo‘lgan talabalar va uzoqlarga a‘zolik guvohnomalari tantanali ravishda topshirildi.

E’tiborli jihati, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ushbu muloqotda belgilab berilgan ustuvor vazifalar O‘zLiDePning saylovoldi dasturida qayd etilgan maqsad va vazifalarga ham uyg‘un, hamohang ekanligini alohida qayd etishni istardim. Xususan, yoshlar uchun manfaatli ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ko‘maklashish yo‘nalishlarida tizimli ish olib borish, yoshlar bandligi va ishbilarmonligini faol qo‘llab-quvvatlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish uchun mikromoliyalash xizmatlarini kengaytirish kabi dolzarb vazifalar ana shu dasturdan o‘rin olgan. Bu borada partiyamiz Yoshlar qanoti tomonidan ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlar masalalariga oid qonun hujjatlari mazmunini ularga sodda va qulay uslubda targ‘ib qilish maqsadida 31 marotaba “Parlamentda yoshlar o‘rni” loyihasi, 85 marotaba “Yosh siyosatchilar ligasi” uchrashuvlari tashkil etildi. Qolaversa, yuqori natijalarga erishgan tajribali tadbirkor va fermerlarni yoshlarga o‘rnak sifatida ko‘rsatish va ustoz-shogird an‘anasini tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida 174 marotaba “Yosh tadbirkorlar ligasi”, 26 marta “O‘zLiDePda mehmonda” va 164 marotaba “Parlamentda mening o‘rnim” loyihalari o‘tkazildi. Shu bilan birga, yoshlar intellektual salohiyatini oshirish maqsadida 56 marta “Siyosiy munozara” yoshlar debat klubi bellashuvlari hamda yoshlar bandligini ta‘minlash maqsadida partiya a‘zolari bo‘lgan tadbirkorlar bilan hamkorlikda 23 marotaba bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari tashkil qilindi. Qayd etish joizki, muhokamalar davomida Prezidentimiz yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha belgilab bergan vazifalar, jumladan, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, unga 100 million dollar mablag‘ ajratilganligini parlamentdagi fraksiyamiz a‘zolari alohida qo‘llab-quvvatladilar.

Xulosa o‘rnida qayd etish joizki, endi barcha tizimdagi rahbarlar O‘zbekiston aholisining katta qismini tashkil qiluvchi yoshlar ovozi eshitishi, kerak bo‘lsa faoliyatini ularning ezgu g‘oya va maqsadlaridan kelib chiqib tashkil qilishi lozim. Chunki har bir rahbar bugun zamonaviy dunyoda mahsulot yetishtirishdan ko‘ra, kadr yetishtirgan afzalroq ekanini teran anglashi kerak. Zero, yaxshi mutaxassis, faqat yaxshi mahsulot yetishtirmaydi balki, buyuk va qudratli kelajak quradi. Ayni shu mushtarak maqsaddan kelib chiqqan holda Yangi O‘zbekiston egalarini tarbiyalashimiz, ko‘tarishimiz va ularning yo‘llarini ochishimiz zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zLiDeP: “Biz ochiqlik va oshkoralikni tanlaymiz!”. <https://daryo.uz/2023/04/01/ozlidep-biz-ochiqlik-va-oshkoralikni-tanlaymiz>
2. O‘zLiDeP partiya dasturi. <https://uzlidep.uz/oz/menu/the-program-of-the-party>
3. O‘zLiDeP rasmiy veb-sayti. <https://uzlidep.uz/oz>